

Fayzullayeva Klara Abdullayevna
“Ijtimoiy fanlar” kafedrası o‘qituvchisi
Jizzax politexnika instituti

AYOL QADRINI YUKSALTIRISH BORASIDA AMALGA OSHIRILGAN ISLOHOTLAR

Annotatsiya: Jamiyatda ayol qadr-qimmati, uning huquq va erkinliklarini himoya qilish borasida davlat bosh islohotchi sifatida namoyon bo‘lmoqda. Zotan, jamiyatda xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini ifoda etish, davlat va jamiyat munosabatlarida ayollarning o‘rni va rolini yanada oshirish, ularning siyosiy, huquqiy, ijtimoiy sohalarida manfaatlarini himoya qilish masalasi YAngi O‘zbekistonda Uchinchi Renessans avlodini shakllantirishning asosiy shartlaridan biri ekanligi ushbu maqolada ko‘rsatib berishga harakat qilingan.

Tayanch so‘zlar: ijtimoiy, nogironlik, BMT, «Onalikni muhofaza qilish to‘g‘risida»gi Jeneva Konvensiyasi, «Xotin-qizlarning siyosiy huquqlari to‘g‘risida», «Xotin-qizlar huquqlari kamsitilishining barcha shakllariga barham berish to‘g‘risida»gi Nyu-York Konvensiyasi, Gender.

Dunyo mamlakatlari qatorida va xalqaro hamjamiyatda munosib o‘ringa ega bo‘lgan O‘zbekistonning davlat va jamiyat sifatidagi taraqqiyoti silsilasida ayolning o‘rni, uning siyosiy va huquqiy madaniyati alohida ahamiyat kasb etadi. Har qanday davlat va jamiyat taraqqiyoti bir qator omillar asosida yuz beradi. Bu jarayonda ayollar, ularning ijtimoiy-siyosiy munosabatlardagi ishtiroki, huquq va erkinliklari amalda ta‘minlanganligi masalasi – davlatlar rivojining hamda demokratiyaning muhim indeksi sanaladi. Zotan, ayol va uning jamiyat hayotidagi o‘rni hamisha muhim mezon bo‘lib kelgan.

Bugungi kunda o‘zbek ayollarining nafaqat oila va farzandlar tarbiyasidagi o‘rni, balki, mamlakatimiz taraqqiyotiga qo‘shayotgan hissasi ham beqiyos. Bugun yurtimizda xotin-qizlarning haq-huquqlarini, qonuniy manfaatlarini ta‘minlash, qobiliyat va imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish, bir

soʻz bilan aytganda opa-singillarimizni jamiyatning teng huquqli, faol va bunyodkor aʼzosi aylantirish borasida keng koʻlamli ishlar amalga oshirilmoqda. Ayollar ijtimoiy himoyasini kuchaytirish, jumladan, bandligini taʼminlash, sogʻligini mustahkamlash, onalik va bolalikni muhofaza qilish, ularning turmush darajasini yaxshilashga eʼtibor yuksak darajaga koʻtarildi desak xato boʻlmaydi. Barchamizga maʼlumki, oʻtgan qisqa davr mobaynida xotin-qizlar manfaatlarini himoya qilish, ular ahvolini tubdan yaxshilashga qaratilgan Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2 ta farmoni, 2 ta qarori, Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 6 ta qarori va 4 ta farmoyishi qabul qilinib, izchil amalga oshirilmoqda va samarali natijalar bermoqda. Davlatimiz rahbari tomonidan xotin-qizlarni har tomonlama qoʻllab-quvvatlash, ular uchun barcha sharoitlarni yaratib berishga alohida eʼtibor qaratilayotgani, ayollar va oila masalalari davlat siyosati darajasiga koʻtarilib, mazkur siyosatni mamlakatimizdagi barcha idora va tashkilot rahbarlari qoʻllab-quvvatlayotgani va uni amalga oshirishda faol ishtirok etayotganligiga barchamiz guvoh boʻlayapmiz. Ayniqsa, ogʻir ijtimoiy vaziyatga tushib qolgan, nogironligi boʻlgan, ish bilan taʼminlanmagan xotin-qizlar ijtimoiy himoyasi borasida mamlakatimizda misli koʻrilmagan ishlar olib borilayotganini nafaqat mamlakatimiz balkim, jahon hamjamiyati, nufuzli xalqaro tashkilotlar, chet elliklar ham tan olib, qiziqish bildirishmoqda.

Oʻz navbatida bu masalaning butun dunyodagi bugungi holatiga eʼtibor qaratadigan boʻlsak, maʼlumotlar shuni koʻrsatadiki, er sayyorasida 8,2 milliard aholini tashkil qiladi, Olmoniya sotsiologlarining hisobicha, dunyoda jami aholining 48 foizi erkaklar, 52 foizini ayollar tashkil etadi, ammo inson faoliyatining va jamiyatning koʻpgina murakkab sohalari, yaʼni bilim, ixtisos, malaka, koʻnikmalar talab qilinadigan sohalarida ularning ishtiroki nihoyatda ozdir. Shuningdek, hozirgi kunda dunyodagi oʻta kambagʻal odamlarning 60 foizdan ortigʻini, savodsiz aholining esa uchdan ikki qismini ayollar tashkil qiladi. Maktabga jalb qilinmagan bolalarning ham uchdan ikki qismi qizlar

hisoblanadi. Butunjahon sog'liqni saqlash tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra, butun dunyoda har uchinchi ayol (35%) hayoti davomida u yoki bu turdagi zo'ravonlikka duch kelar ekan.

Ammo bizning mamlakatimizda ayollarga e'tibor chinakam davlat siyosati darajasiga ko'tarildi: uning huquqiy va institutsional asoslari tubdan takomillashtirildi. Mamlakatimizda gender tenglikni ta'minlash, ayollarning ijtimoiy va siyosiy hayotdagi rolini oshirish faoliyati: ayollar huquqlari to'g'risidagi qonun hujjatlarini takomillashtirish; ayollarni himoya qilishning institutsional asoslarini takomillashtirish; aholining gender tenglik va ayollar huquqlari to'g'risida xabardorligini oshirish; huquqni qo'llash amaliyotida ularga rioya etilishini ta'minlash uchun mas'ul mansabdor shaxslarni tegishli huquqiy me'yorlar asosida o'qitish kabi asosiy yo'nalishlardan iborat.

Mamlakatimizda ayol qadrini yuksaltirish borasida amalga oshirilgan keng qamrovli islohotlar, albatta, bu borada huquqiy asoslar yaratilganligi va muntazam takomillashtirib borilayotganligi bilan hal qiluvchi ahamiyatga egadir. Xususan, Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 58-moddasida «Xotin-qizlar va erkaklar teng huquqlidirlar» deb belgilanganligi mamlakatimizda gender tenglikni ta'minlash, xotin-qizlarning jamiyat va davlat boshqaruvidagi rolini oshirish borasidagi tizimli islohotlar uchun bosh huquqiy asos bo'lib xizmat qilmoqda.

E'tirof etish kerak, so'nggi yillarda xotin-qizlarning huquq va qonuniy manfaatlarini ta'minlash, ularning jamiyatdagi rolini kuchaytirish, oila institutini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish ishlari yangi sifat bosqichiga ko'tarildi. O'zbekiston xotin-qizlarni har qanday kamsitish va tahqirlashlardan himoya qiladigan barcha asosiy xalqaro hujjatlarga qo'shildi. Bunda «Onalikni muhofaza qilish to'g'risida»gi Jeneva Konvensiyasi, «Xotin-qizlarning siyosiy huquqlari to'g'risida»gi hamda «Xotin-qizlar huquqlari kamsitilishining barcha shakllariga barham berish to'g'risida»gi Nyu-York Konvensiyalari, «Birlashgan Millatlar Tashkilotining transmilliy uyushgan

jinoyatchilikka qarshi Konvensiyasini to'ldiruvchi odam savdosining, ayniqsa, ayollar va bolalar savdosining oldini olish hamda unga chek qo'yish va uning uchun jazolash haqidagi» Bayonnomasi kabi xalqaro hujjatlarni misol qilib keltirish mumkin.

2030 yilgacha bo'lgan davrda BMT Global kun tartibining Barqaror rivojlanish maqsadlarini izchil amalga oshirish bo'yicha tizimli ishlarni tashkil etish maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 21 fevraldagi 83-son qarori bilan tasdiqlangan «2030 yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalar»ning 5-maqsadi – Gender tenglikni ta'minlash va barcha xotin-qizlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish – mamlakatimizda xotin-qizlar va erkaklarning teng huquq hamda imkoniyatlarini ta'minlashga qaratilgan islohotlar bilan hamohangdir. Ushbu maqsadni amalga oshirish doirasida xotin-qizlarni kamsitishning barcha shakllariga barham berish, ularga nisbatan zo'ravonlikning barcha shakllarini, shu jumladan, odam savdosi, jinsiy ekspluatatsiya hamda ekspluatatsiyaning boshqa shakllarini, erta nikohlar va zo'rab nikohlash holatlarini tugatish, xotin-qizlar siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hayotning barcha bosqichlarida har tomonlama ishtirok etishlarini hamda qaror qabul qilishda etakchilik qilishlari uchun teng imkoniyatlarni ta'minlash, reproduktiv salomatlikni asrash sohasida umum qamrovli tibbiy-sanitariya yordami ko'rsatish uchun sog'liqni saqlash xizmatlaridan umumiy foydalanishni ta'minlash va shu kabi 9 ta vazifa belgilanganki bu mamlakatimizda ayollarga bo'lgan e'tiborning yorqin namunasidir.

Muxtasar aytganda, jamiyatda ayol qadr-qimmatini, uning huquq va erkinliklarini himoya qilish borasida davlat bosh islohotchi sifatida namoyon bo'lmoqda. Zotan, jamiyatda xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini ifoda etish, davlat va jamiyat munosabatlarida ayollarning o'rni va rolini yanada oshirish, ularning siyosiy, huquqiy, ijtimoiy sohalarda manfaatlarini himoya qilish masalasi YAngi O'zbekistonda Uchinchi Renessans avlodini shakllantirishning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi.

1. FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2018 yil 2 fevraldagi “Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PF-5325-son Farmoni Xalq so‘zi 2018 yil 3 fevral
3. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat-engilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
4. Karimov I. A. Xotin-qizlar faolligini oshirish davr talabi // Tinchlik va xavfsizligimiz o‘z kuch-qudratimizga, hamjihatligimiz va qat’iy irodamizga bog‘liq. 12-jild. – Toshkent: O‘zbekiston, 2004.
5. Файзуллаева К. А. ТАРИХИЙ ҚАДРИЯТЛАРГА ТЎҒРИ МУНОСАБАТНИ ШАКЛЛАНТИРИШ //MODERN SCIENTIFIC CHALLENGES AND TRENDS. – 2019. – С. 111.
6. Abdullayevna F. K., Qizi R. S. D. F. AFG ‘ONISTON MARKAZIY OSIYODAGI MINTAQAVIY XAVFSIZLIKNING KAFOLATI //" ONLINE-CONFERENCES" PLATFORM. – 2023. – Т. 1. – С. 479-482.
7. Abdullayevna F. K. THE HISTORY OF SPECIAL CAMPS IN GERMANY DURING THE SECOND WORLD WAR //CURRENT RESEARCH JOURNAL OF HISTORY. – 2022. – Т. 3. – №. 01. – С. 1-5.
8. Файзуллаева К. Реформы в сфере образования.//Вестник НУУЗ.Ташкент-2024.-1/11/1. –С. 71-73.
9. Abdullayevna, F. K., & Zafarovna, Y. N. (2024, February). XOTIN-QIZLAR O ‘ZGARISH VA YANGILANISHLAR ILM-FAN SOHASIDA. In *INTERNATIONAL CONFERENCE ON INTERDISCIPLINARY SCIENCE* (Vol. 1, No. 2, pp. 311-314).
10. Abdullayevna, F. K., & Abdurashidovich, T. M. (2021). Supporting young people and strengthening the health of the population-as a priority in the appeal. *International Journal of Discourse on Innovation, Integration and Education*, 2(2), 147-152.